O'zmilliybank AJ Jizzax viloyati Bosh boshqarmasi Amaliyot bank xizmatlari markazida o'tkazilgan davra suxbati mazmunidagi yig'ilish

BAYONNOMASI 1 -son

2026 yil " 09 " yanvar Jizzax shahri.

Yig'ilishni olib boruvchi: G'.Yunusov – O'zmilliybank AJ Korrupsiyaning oldini olish boshqarmasi Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi Jizzax viloyati bosh boshqarmasi bo'yicha bosh mutaxasisi.

Qatnashdilar: O'zmilliybank AJ Jizzax viloyati bosh boshqarmasi bo'lim boshliqlari, xodimlari va yuristlar, Jizzax amaliyot, *(zoom orqali)* Industrial, Mirzacho'l BXM xamda Paxtakor BXO raxbar va barcha xodimlari. *(jami 65 nafar)*

KUN TARTIBI:

1. **Manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga oid huquqiy targ'ibotlarning mazmun-moxiyatini bank xodimlariga tushuntirish va yillik Deklaratsiyani to'g'ri rasmiylashtirish, hamda har qanday holatda ham manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari to'g'risida.**
2. **O'zmilliybank AJ Jizzax viloyat Bosh boshqarmasi va uning xududiy BXO, BXMlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish to'g'risida.**

Davra suxbati mazmunidagi yig'ilishni O'zmilliybank AJ Korupsiyaning oldini olish boshqarmasi Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi Jizzax viloyati bosh boshqarmasi bo'yicha bosh mutaxassis G'.A.Yunusov so'z olib, qatnashchilarni O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni (05.06.2024 y), mazmun moxiyatini tushuntirib o'tdi, xamda yillik Deklaratsiyani to'g'ri rasmiylashtirish bo'yicha "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida yaqin qarindoshlar - *ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, kizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari* deb belgilab qo'yilganligini va shuning uchun yillik Deklaratsiyani rasmiylashtirishda yaqin qarindoshlar bo'yicha e'tiborliroq bo'lishlikka chaqirdi, xamda O'zmilliybank AJ Jizzax viloyati bosh boshqarmasi va unga bo'ysinuvchi barcha BXO, BXM raxbar va xodimlari ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi yillik deklaratsiyani to'ldirishi va har yili 15 yanvardan kechiktirmay maxsus bo'linmaga taqdim etishi kerakligini aytib o'tdi.

Bundan tashqari G'.A.Yunusov *(yillik, ishga qabul qilinayotganda, boshqa ishga o'tkazilayotganda)* Deklaratsiyalar qanday tartibda to'ldirilishi kerakligi yuzasidan tushunchalar berib o'tdi va Dekleratsiyani rasmiylashtirishda yolg'on ma'lumotlar kiritmaslikni xamda yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirmaslikni aytib o'tdi va Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik O'z.Res.MJtKning **193[4]** moddasida belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortilishi aytib o'tdi.

Shundan so'ng "O'zmilliybank" AJ Jizzax viloyati bosh boshqarmasi bo'yicha bosh yuristi B.Muxtarov O'z.Res.MJtKning **193[4]** moddasi yuzasidan tushunchalar berib o'tdi va quyidagilarni ma'lum qildi: **ya'ni:** *Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsi yoki xodimi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda*

tutilgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi haqida xabar bermaslik, -

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsiga ma'lum bo'lib qolgan, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rmaslik,

- bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa,

- bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar davlat xaridlari sohasida sodir etilgan bo'lsa, -

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi»;

"O'zmilliybank" AJ Korupsiyaning oldini olish boshqarmasi Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi Jizzax viloyati bosh boshqarmasi bo'yicha bosh mutaxassis G'.A.Yunusov o'z so'zini davom ettirar ekan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (03.01.2017 y, O'RQ-419-son), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (27.05.2019, PF-5729), yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikning ta'sirchan choralarini nazarda tutuvchi idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishlikni ma'lum qildi va yig'ilish so'ngida **Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlar (agar mavjud bo'lsa)**

1. Hokimiyat organlari, tijorat banklar, Markaziy bank, Prokuratura, Adliya, DSI, Moliya, sug'urta va boshqalar;
2. "O'zmilliybank" AJ bilan kelajakda extmoliy moliyaviy munosabatga kirishi mumkin bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar;
3. "O'zmilliybank" AJ ta'sischiligidagi sho'ba korxonalar.
4. O'zmilliybank bilan bog'liq bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning kreditlari: to'g'risidagi ma'lumotlarni yillik Deklaraqiyaga kiritishlikni aytib o'tdi.

Yig'ilish so'nggida bank xodimlari tomonidan savol javob bo'lib o'tdi va yuqorida aytib o'tilganlar yuzasidan seminar yig'ilish.

QAROR QILADI:

1. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalalar "O'zmilliybank" AJ Jizzax viloyati bosh boshqarmasi va unga bo'ysinuvchi barcha BXO, BXM raxbar va xodimlari tomonidan ma'lumot uchun qabul qilinsin:

2. O'zmilliybank AJ Jizzax viloyati bosh boshqarmasi va unga bo'ysinuvchi barcha BXO, BXM raxbar va xodimlari ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi yillik deklaratsiyani shu yilning 15 yanvardan kechiktirmay rasmiylashtirish va kadrlar bilan ishlash bo'limiga topshirishlik qat'iy belgilab qo'yilsin:

3. Korrupsiyani yoki korrupsion sxemalarni oldini olish, kelib chiqish omillarini yo'q qilish bo'yicha hamda manfaatlar to'qnashuga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar doirasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirishni va qonun ustivor Davlatimizda jazo muqarrarligi barcha xodimlarga yetkazilsin:

7. Qaror mazmuni bilan barcha yig'ilish qatnashchilari tanishtirilsin xodimlari tanishtirilsin:

Seminarni olib bordi **G'.Yunusov**

Kotib: **R.Qodirqulova**

NBU
O'ZMILLIYBANK

NBU
O'ZMILLIYBANK

NBU
O'ZMILLIY

NBU
O'ZMILLIYBANK